

## **RAQAMLI IQTISODIYOTNING GLOBAL IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI**

**Xoshimov Mirjalol Murodjon o'g'li**

Fan va texnologiyalar universiteti 1-bosqich talabasi

[Xoshimovmirjalol17@gmail.com](mailto:Xoshimovmirjalol17@gmail.com)

**Rasulov Rustambek Odilovich**

Fan va texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti v.b, f.f.f.d., (PhD)

ORCID: 0009-0001-3976-4177

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning bugungi dunyo iqtisodiyotidagi o'rni va uning qanday qonuniyatlar asosida rivojlanishi haqida so'z boradi. Raqamli texnologiyalar global iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatayotgani, ishlab chiqarish va xizmatlar sifatini yaxshilayotgani, mehnat bozori tarkibini o'zgartirayotgani aytiladi. Shuningdek, innovatsiya, ma'lumotning qadrli resursga aylanishi, platformalar (Amazon, Google va boshqalar) rolining kuchayishi, tarmoqlanish, raqamli tafovut va avtomatlashtirish raqamli iqtisodiyotning asosiy rivojlanish qonuniyatlari ekanligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar;** Sun'iy intellekt texnologiyalari, platformaviy iqtisodiyot, tarmoq effekti, avtomatlashtirish va robototexnika, transformatsiyasi, blokcheyn texnologiyasi, raqamli infratuzilma.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyot xalqaro iqtisodiy makonning ajralmas va eng faol rivojlanayotgan qismi sifatida maydonga chiqdi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida aynan raqamli texnologiyalarga, sun'iy intellektga, onlayn xizmatlarga, elektron savdo tizimlariga va raqamli moliyaviy vositalarga tayana boshladi. Bu jarayon natijasida ishlab chiqarish jarayonlari tezlashmoqda, xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanmoqda va korxonalar global bozorda o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki xalqaro raqobatning yangi shakllarini ham yuzaga keltiradi.

Shuningdek, raqamli infratuzilmaning kengayishi mehnat bozorining tarkibini keskin o'zgartirmoqda. Avvallari katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab kasblar o'z mavqeini yo'qotayotgan bo'lsa, o'rniga data tahlili, sun'iy intellekt muhandisligi, kiberxavfsizlik, raqamli marketing kabi yangi mutaxassisliklar paydo bo'lmoqda. Bu

esa iqtisodiyotning tobora bilimga tayangan modelga o'tishini anglatadi. Moliyaviy tizimda ham jiddiy yangilanishlar ro'y bermoqda. Raqamli to'lovlar, virtual banklar, blokcheyn asosidagi operatsiyalar global miqyosda moliyaviy muomalalarning xavfsizligini va tezligini oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.[1]

Eng asosiy tamoyil – doimiy innovatsiyadir. Texnologik yangiliklarni tezda joriy qila olgan davlat yoki kompaniya bozorda yetakchi bo'lib qoladi. Aksincha, yangilikka moslashmagan subyektlar asta-sekin raqobatdan chiqib ketadi. Rivojlanishning navbatdagi tamoyili – ma'lumotlarning strategik resursga aylanishi. Bugungi iqtisodiy sharoitda data eng qimmat aktiv sifatida qaraladi: kim ma'lumotni ko'proq to'plab, uni qayta ishlay olsa, iqtisodiy ustunlikni qo'lga kiritadi. Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim jihati – platformaviy biznes modellarining shakllanishidir.

Amazon, Google, Alibaba, Uber kabi platformalar foydalanuvchi soni ortgani sari o'z qiymatini yanada ko'paytiradi [2]. Bu holat tarmoq effektining amalda namoyon bo'lishi bo'lib, platformaga qo'shilgan har bir yangi foydalanuvchi qolganlar uchun ham qo'shimcha qiymat yaratadi. Shu bilan birga, raqamli tafovut tamoyili ham muhim: texnologiyalarga keng kirish imkoniga ega bo'lgan davlatlar tez rivojlanadi, imkoniyatlari cheklanganlar esa asta-sekin ortda qoladi.

Avtomatlashtirishning kuchayishi esa ishlab chiqarish sifatini oshirib, xarajatlarni kamaytiradi va inson omilidan bog'liq xatolarni kamaytiradi. Bu esa korxonalar uchun global raqobatda qo'shimcha ustunlik yaratadi. Natijada, raqamli iqtisodiyot xalqaro maydonda iqtisodiy munosabatlarning yangi tizimini shakllantirib, dunyo iqtisodiyotini yanada integratsiyalashgan, tezkor va samarador tizimga aylantirmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda raqamli iqtisodiyot jahon xo'jalik tizimining eng muhim tarkibiy bo'g'inlaridan biriga aylandi. Avvalgi davrlarda iqtisodiy taraqqiyot asosan sanoat ishlab chiqarishi, xomashyo resurslari va jismoniy mehnat bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, hozirgi bosqichda axborot, bilim va texnologiyalar ustuvor omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan davlatlar iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish va global raqobatda yetakchilikni saqlab qolishga erishmoqda. Bugungi kunda dunyo

YAIMining qariyb 15–20 foizi raqamli iqtisodiyot hissasiga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich har yili oshib bormoqda.[3]

Raqamli iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimdagi o‘rni, eng avvalo, samaradorlikning oshishida ko‘zga tashlanadi. Elektron savdo, raqamli xizmatlar va onlayn platformalar orqali amalga oshirilayotgan iqtisodiy operatsiyalar vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi. Xalqaro elektron savdo platformalari ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi masofani bartaraf etib, savdo jarayonlarini soddalashtirdi. Bu holat kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham global bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirdi.

Elektron tijorat bozori hajmi so‘nggi yillarda trillionlab AQSh dollariga yetib, an‘anaviy chakana savdodan tezroq o‘smoqda.[4]

Sanoat tarmoqlarida raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan yangilamoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlar, robotlashtirilgan liniyalar va sun‘iy intellekt asosidagi boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqarish aniqligi va unumdorligini oshirmoqda. Natijada, mahsulot sifati yaxshilanib, resurslardan foydalanish samarasi ortmoqda.

Robototexnika sohasidagi jadal o‘zgarishlar mehnat bozorida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Sanoatni avtomatlashtirish va robototexnika nafaqat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki mavjud ish joylariga ham ta‘sir qiladi. Ushbu maqolada robototexnika bilan bog‘liq mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, kelajakdagi tendentsiyalar va real hayot misollari ko‘rib chiqiladi. Robototexnika va avtomatlashtirish jarayonlari ayrim sohalarda ish o‘rinlarining yo‘qolishiga olib kelmoqda. McKinsey & Company tomonidan 2019-yilda o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, 2030-yilga borib avtomatlashtirish va robototexnika tufayli butun dunyo bo‘ylab 400 milliondan ortiq ish o‘rni yo‘qolishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, ishlab chiqarish, transport va ombor logistikasi sohaslarida sezilarli. Raqamlashtirish jarayoni mehnat bozori tarkibiga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Takrorlanuvchi va oddiy vazifalarga asoslangan ish o‘rinlari qisqarib borayotgan bir paytda, yuqori malaka va analitik fikrlashni talab qiluvchi kasblarga ehtiyoj oshmoqda. Dasturlash, ma‘lumotlar tahlili, sun‘iy intellekt va kiberxavfsizlik kabi yo‘nalishlar eng tez rivojlanayotgan sohalarda qatoriga kiradi [5].

So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot insoniyat hayotining barcha jabhalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli transformatsiya, sun‘iy intellekt avtomatlashtirish va katta hajmdagi ma‘lumotlar asosida shakllanayotgan yangi davr nafaqat kundalik faoliyatni, balki mehnat bozorining tuzilmasini ham butunlay yangilab bormoqda. Endilikda ishchi kuchiga bo‘lgan talab faqat an‘anaviy bilimlar va kasbiy malakalar bilan emas,

balki moslashuvchanlik, raqamli savodxonlik va ijodkorlik kabi yangi ko'nikmalar bilan belgilanyapti [6].

Moliyaviy sohada ham raqamli iqtisodiyot muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar, mobil bank xizmatlari va raqamli to'lov tizimlari kundalik moliyaviy operatsiyalarni ancha qulaylashtirdi

Blokcheyn moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish va ma'lumotlarni saqlash, uzatish va almashishning butun usulini inqilob qilib, moliya sektorini buzmoqda. Biroq, uning ta'siri eng yuqori darajada emas, chunki bir nechta moliyaviy xizmatlar provayderlari ushbu texnologiyaga pul tikishda ikkilanishadi. Blockchain-ni poydevor texnologiyasi sifatida ko'rib chiqish to'g'ri bo'lar edi, chunki texnologiya moliyaviy sektorni kuchaytirishda uzoq yo'lni bosib o'tishi kerak. Shunga qaramay, sanoatning o'zgarishi sezilarli.[7]

Ayrim mamlakatlarda naqd pulsiz to'lovlar umumiy to'lovlarning 80–90 foizigacha yetgan.[8]

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi muayyan qonuniyatlar asosida kechadi. Ulardan biri — doimiy innovatsiyaga bo'lgan ehtiyojdir. Texnologik yangiliklarni tez qabul qilgan subyektlar bozorda ustunlikka ega bo'ladi. Yana bir muhim qonuniyat — ma'lumotlarning iqtisodiy qiymatga ega bo'lishidir. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyati sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda 760 ta davlat xizmati raqamlashtirilgan. O'tgan yili 10 million fuqaro raqamli xizmatlardan foydalangan. Davlatimiz rahbari endi keyingi "Raqamli hukumat" bosqichiga o'tish vaqti kelganini ta'kidladi. Buni, eng avvalo, aholi eng ko'p murojaat qiladigan ta'lim, tibbiyot, qurilish va kommunal sohalardan boshlash kerakligi aytiladi.[9]

Platformaviy iqtisodiyot ham raqamli rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Raqamli platformalar foydalanuvchilar soni ortgani sari o'z iqtisodiy ahamiyatini kuchaytiradi. Bu jarayon tarmoq effekti bilan izohlanadi. Shu bilan birga, raqamli tafovut muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Dunyo aholisining hali ham muayyan qismi yuqori tezlikdagi internetdan foydalana olmaydi, bu esa iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bugungi global iqtisodiy tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. U ishlab chiqarish, savdo, moliya va mehnat bozorini chuqur transformatsiyalab, iqtisodiy munosabatlarning yangi modelini shakllantirmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. <https://kun.uz/news/2020/07/06/>
2. Amazon, Google, Alibaba, Uber kabi platformalar foydalanuvchi soni ortgani sari o‘z qiymatini yanada ko‘paytiradi. <https://ui.infocom.uz/articles/>
3. Bugungi kunda dunyo YAIMining qariyb 15–20 foizi raqamli iqtisodiyot hissasiga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich har yili oshib bormoqda. <https://infocom.uz/articles/>
4. Elektron tijorat bozori hajmi so‘nggi yillarda trillionlab AQSh dollariga yetib, an’anaviy chakana savdodan tezroq o‘smoqda. <https://ui.infocom.uz/articles/>
5. . McKinsey & Company tomonidan 2019-yilda o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, 2030-yilga borib avtomatlashtirish va robototexnika tufayli butun dunyo bo‘ylab 400 milliondan ortiq ish o‘rni yo‘qolishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. <https://ui.infocom.uz/articles/>
6. . Endilikda ishchi kuchiga bo‘lgan talab faqat an’anaviy bilimlar va kasbiy malakalar bilan emas, balki moslashuvchanlik, raqamli savodxonlik va ijodkorlik kabi yangi ko‘nikmalar bilan belgilanyapti. <https://talimtelekanali.uz/uz/>
7. Blockchain-ni poydevor texnologiyasi sifatida ko‘rib chiqish to‘g‘ri bo‘lar edi, chunki texnologiya moliyaviy sektorni kuchaytirishda uzoq yo‘lni bosib o‘tishi kerak. Shunga qaramay, sanoatning o‘zgarishi sezilarli. <https://www.antiersolutions.com/uz/>
8. Ayrim mamlakatlarda naqd pulsiz to‘lovlar umumiy to‘lovlarning 80–90 foizigacha yetgan. <https://bank.uz/uz/news/naqd-va-naqdsiz-pullar4341>
9. Bugungi kunda 760 ta davlat xizmati raqamlashtirilgan. O‘tgan yili 10 million fuqaro raqamli xizmatlardan foydalangan. <https://www.ictfund.uz/uz/lists/view/138>
10. Rasulov Rustambek Odilovich. *Jamiyat va yoshlar bilan ishlash tizimida ta’lim va tarbiyaning madaniy asoslari (Ijtimoiy-falsafiy tahlili)*. — *O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari jurnali*, 2023, B. 119–121.
11. Rasulov Rustambek. *Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari*. — *Management and Future Technologies Scientific Journal*, June 2025, Volume 2, Issue 2, B. 353–364.
12. Rasulov Rustambek Odilovich - *The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development*. Spanish Journal of Innovation and Integrity, ISSN: 2792-8268, Volume: 37, Dec-2024. <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/106/150>
13. Rasulov, R. . (2024). *The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth*. *Академические исследования в современной науке*, 3(48), 124–132. *извлечено от* <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/61938>

14. Rasulov Rustambek Odilovich. *The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth* Vol. 3 No. 12 (2024): *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT (IJERO)*. <http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/417>
15. Rasulov Rustambek Odilovich. Cultural basics of education and the role of youth in it. [Philosophy And Life International Journal](#). ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505.  
<https://www.tadqiqot.uz/index.php/philosophy/article/view/11321>
16. O.Tursunov, R.O. Rasulov. *Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: C# WinForms asosida kalkulyator modeli*. — Academic Research in Modern Science, International scientific-online conference, 2023. — **[B. 27.](#)**
17. R.O. Rasulov. Ommaviy kommunikatsiyalarning yoshlar ijtimoiy siyosiylashuviga ta'siri bilan bog'liq g'oyaviy tendensiyalar. "Falsafa va hayot" ilmiy jurnali. Tom 3. №3. B. 47-54.
18. R.Rasulov. *Yangi O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash tizimida ularning ijtimoiy faolligi va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos mexanizmlari*. — Научно-теоретический журнал "Ma'mun Science", 2022. — **[B. 45.](#)**
19. Rasulov Rustambek Odilovich. *Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri*. — *International Journal of Scientific Research*, 2023, Tom 2, B. 147–152.
20. Rasulov Rustambek Odilovich. *Yoshlar bilan ishlashda tarbiyaning mafkuraviy asoslari*. — *Falsafa va Huquq jurnali*, 2023, Tom 3, B. 116–121.